

Yo'lovchi va kutib oluvchilar diqqatiga

2022 30 Noyabr

Bugun, 2022-yil 30-noyabr kuni Farg'ona xalqaro aeroportida noqulay ob-havo sharoiti tufayli HY-278 Istanbul – Farg'ona reysi Namangan xalqaro aeroportiga yo'naltirildi.

HY-082 Farg'ona – Toshkent qatnovi yaqin fursatlarda o'z yo'nalishi bo'yicha parvozni amalga oshirishini ma'lum qilamiz.

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati aviakompaniya uchun parvozlarning xavfsizligi yuqori o'rinda turishini eslatib o'tadi. Keltirilgan noqulayliklar uchun yo'lovchilar va ularni kutib oluvchilardan uzr so'raymiz.